



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISSLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna	
RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI.....	169
Azizova Dilafruz Habibullayevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR.....	172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi	
O'ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	176
Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BYUDJETGA SOLIQ TO'LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	188
Tolipova Malika Saloxidinovna	



AGROKLAsterLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	198
M.I. Murodova	
“YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI	203
Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li	



KIRISH

Bugungi kunda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish jahon iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ilk bor 3 trillion AQSH dollaridan oshishi, shundan qariyb 2 trillion AQSH dollari toza energiya texnologiyalari va infratuzilmasiga sarflanishi prognoz qilingan. Bu esa dunyo miqyosida "yashil" investitsiyalarning strategik ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.¹

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar yetarli emas. UNCTAD hisobotiga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish bo'yicha yillik investitsiya taqchilligi 2015-yildagi 2,5 trillion AQSH dollaridan 2023-yilda 4 trillion AQSH dollarigacha kengaygan. Ushbu holat "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini shakllantirish, xususi kapitalni jalb etish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish zaruratini yanada oshirmoqda.²

O'zbekiston uchun ham ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotga o'tish masalalari strategik ahamiyatga ega. Mamlakatda 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 GVtga yetkazish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarishda "toza" generatsiya quvvatlari ulushini 50 foizdan oshirish maqsad qilingan. Ushbu maqsadlar natijasida 2030-yilda tabiiy gaz iste'molini 30,2 milliard kub metrqa qisqartirish imkoniyati yuzaga kelishi kutilmoqda.³

Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha iqlim va rivojlanish hisobotida mamlakatning 2060-yilgacha uglerod neytralligiga erishish maqsadi iqtisodiy o'sish, energiya xavfsizligi va kambag'allikni qisqartirish bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi. Hisobotda iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlariga moslashish uchun O'zbekistonga 2023–2060-yillar davomida ayrim muhim sohalarda qo'shimcha 46,7–59,8 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya talab etilishi qayd etilgan. Bu esa "yashil" investitsiyalarni moliyalashtirish masalasining nafaqat ekologik, balki makroiqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Mazkur sharoitda "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish, ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliyaviy institutlar, tijorat banklari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, "yashil" obligatsiyalar, grantlar, imtiyozli kreditlar va aralash moliyalashtirish instrumentlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu moliyaviy vositalar investitsiya xatarlarini kamaytirish, ekologik loyihalarning iqtisodiy jozibadorligini oshirish va xususiy sektor kapitalini keng jalb etish imkonini beradi.

Shu sababli mazkur maqolada "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning nazariy asoslari, iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlari va institutsional shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, energiya samaradorligini oshirish hamda barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi moliyaviy qarorlarni takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik masalalari global siyosiy va iqtisodiy kun tartibida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda xalqaro moliyaviy institutlar rivojlanayotgan mamlakatlarga ekologik loyihalarni moliyalashtirish orqali ularning yashil energetikaga o'tish jarayonini jadallashtirishda muhim vositachilardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan chop etilgan so'nggi hisobotlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yashil energiyaga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi yil sayin ortib bormoqda⁴.

Jahon banki (World Bank, 2022) o'zining "Green Growth" konsepsiyasida yashil energiya rivojlanishi uchun muhim omil sifatida institutsional hamkorlik va moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini ta'kidlagan. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki (ADB, 2023) tomonidan e'lon qilingan hisobotda Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, energiya samaradorligini oshirish va karbon emissiyasini kamaytirishga qaratilgan loyihalarning moliyalashtirilayotgani haqida batafsil ma'lumot berilgan.

1 Manba: <https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2024/overview-and-key-findings> - International Energy Agency (IEA), World Energy Investment 2024 hisoboti.

2 Manba: <https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2024/overview-and-key-findings> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

3 Manba: "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.

4 Manba: Rasmiy xalqaro tashkilotlar (World Bank, IEA) saytlarida e'lon qilingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD, 2022) tomonidan qo'llab-quvvatlangan Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi quyosh elektr stansiyalari O'zbekistonda yashil energiya bo'yicha xalqaro hamkorlikning yorqin namunasi sifatida qayd etilgan. EBRD ekspertlari ta'kidlaganidek, bunday loyihalarda banklar faqat moliyaviy manba emas, balki texnik maslahat, ekologik standartlar va tender jarayonlari bo'yicha ham muhim ishtirokchidir (EBRD Green Economy Transition Strategy, 2021–2025)⁵.

Mahalliy tadqiqotchilar, jumladan M.Murodov va D.Xolmurodova o'z ilmiy ishlari orqali xalqaro institutlar tomonidan O'zbekistonda moliyalashtirilayotgan ekologik loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, investorlar uchun yaratilgan preferensiyalar va institutlararo koordinatsiya muammolarini tahlil qilgan. Ularning fikricha, yashil investitsiyalarni kengaytirish uchun O'zbekiston huquqiy bazani takomillashtirishi, energetika bozorini liberallashtirishi va xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirishi zarur⁶.

2024-yilda Iqlim o'zgarishi bo'yicha BMT doimiy komissiyasi (UNFCCC) tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonning yashil moliyalashtirish imkoniyatlari Markaziy Osiyodagi eng istiqbolli bozorlardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq, ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun xalqaro moliyaviy institutlar bilan tizimli va uzoq muddatli strategik hamkorlik talab etiladi⁷.

Shuningdek, N. Norova (2024) o'z tahliliy maqolasida O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" kontsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi, xalqaro donorlar bilan imzolangan kredit va grant shartnomalari, hamda mavjud loyihalarning monitoring tizimi haqida chuqur tahlil bergan. U ilmiy asosda ta'kidlaganidek, hozirgi bosqichda O'zbekiston uchun eng muhim strategik vazifa — xalqaro moliyaviy institutlar bilan ishlashda institutsional koordinatsiyani mustahkamlash, loyiha boshqaruvini oshirish va mahalliy mutaxassislar salohiyatini kuchaytirishdan iborat⁸.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar va xalqaro amaliy tajriba tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yashil energiya sohasiga investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro moliyaviy institutlar nafaqat moliyaviy manba, balki muhim bilim, texnologiya va siyosiy platforma yetkazuvchi sifatida ham qaralmoqda. O'zbekiston bu imkoniyatlardan kengroq foydalanishi uchun o'zining institutsional va normativ bazasini moslashtirishni davom ettirishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari, ularning iqtisodiy, ekologik, moliyaviy va institutsional samaradorligi kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy e'tibori qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda uglerod chiqindilarini qisqartirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va vositalarini ilmiy jihatdan baholashga qaratildi.

Tadqiqot jarayonida xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Global Environment Facility hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekistonda moliyalashtirilayotgan "yashil" investitsiya loyihalari alohida tahlil qilindi. Ushbu loyihalar doirasida ajratilgan kreditlar, grantlar, texnik ko'mak, kafolat instrumentlari va aralash moliyalashtirish mexanizmlarining mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoniga ta'siri ilmiy nuqtai nazardan o'rganildi. Shuningdek, xalqaro institutlarning moliyaviy resurslari orqali amalga oshirilayotgan quyosh va shamol energetikasi, energiya samaradorligini oshirish, ekologik infratuzilmani rivojlantirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish loyihalarining barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shayotgan hissasi baholandi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ham chuqur tahlil qilindi. Xususan, yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga oid davlat dasturlari, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha normativ hujjatlar, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirishga doir huquqiy asoslar hamda ekologik siyosatga oid strategik hujjatlarning mazmuni kontent-tahlil asosida o'rganildi. Bu orqali "yashil" investitsiyalarni moliyalashtirishda institutsional muhit, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va huquqiy tartibga solish tizimining ahamiyati aniqlashtirildi.

Tadqiqotda "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy manbalari sifatida davlat budjeti mablag'lari, xalqaro moliyaviy institutlar kreditlari, grantlar, tijorat banklari resurslari, xususiy sektor investitsiyalari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, "yashil" obligatsiyalar va boshqa innovatsion moliyaviy instrumentlar tahlil qilindi. Ushbu moliyaviy vositalarning har biri barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi

5 Manba: Rasmiy xalqaro tashkilotlar (EBRD) saytlarida e'lon qilingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

6 Xolmurodova D. (2023). "Yashil energiya investitsiyalari va ularning ijtimoiy ta'siri: O'zbekiston tajribasi". Barqaror Taraqqiyot Masalalari to'plami.

7 UNFCCC (2024). Climate Finance Report: Unlocking Green Investment Potential in Central Asia. United Nations Framework Convention on Climate Change. Rasmiy sayt: <https://unfccc.int> (Muallif tomonidan umumlashtirilgan).

8 Norova N. (2024). O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning istiqbollari. TIFT universiteti ilmiy jurnali, 2(1), 45–53.



o'zni, investitsiya xatarlarini kamaytirishdagi ahamiyati, uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari va ekologik samaradorlikka ta'siri nuqtai nazaridan baholandi.

Tadqiqotda xususiy sektor, mahalliy tijorat banklari, mustaqil elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar, texnoparklar, innovatsion startaplar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining "yashil" investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi ishtiroki ham o'rganildi. Ularning xalqaro moliyaviy institutlar, davlat organlari va investorlar bilan hamkorligi, loyihalarni moliyalashtirishdagi imkoniyatlari hamda yashil texnologiyalarni joriy etishdagi roli tahlil qilindi. Bu esa "yashil" investitsiyalarni moliyalashtirishda nafaqat davlat va xalqaro institutlar, balki xususiy sektor va innovatsion subyektlarning ham muhim ahamiyatga ega ekanini asoslash imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqot "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning mavjud holatini baholash, ushbu jarayondagi moliyaviy va institutsional muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, investitsion muhitni takomillashtirish va barqaror taraqqiyotga yo'naltirilgan moliyaviy siyosatni samarali tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda global ekologik muammolarning keskinlashuvi, iqlim o'zgarishi oqibatlarining kuchayishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda energiyaga bo'lgan talabning ortib borishi davlatlarni iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy modelidan ekologik jihatdan barqaror va resurs tejamkor taraqqiyot modeliga o'tishga undamoqda. Ayniqsa, energetika tarmog'ida qazib olinadigan yoqilg'i resurslariga qaramlikni kamaytirish, issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirish nafaqat ekologik muammolarni yumshatish, balki iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi, innovatsion va inkluziv modelini shakllantirishda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda quyosh, shamol, gidroenergetika, bioenergiya hamda boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan loyihalar ko'plab mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy moliyaviy-investitsion yo'nalishiga aylanmoqda. Bunday loyihalarni amalga oshirish esa katta hajmdagi uzoq muddatli moliyaviy resurslar, zamonaviy texnologiyalar, institutsional salohiyat va samarali boshqaruv mexanizmlarini talab qiladi. Shu sababli xalqaro moliyaviy institutlar — Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yashil iqlim jamg'armasi hamda boshqa donor tashkilotlar rivojlanayotgan davlatlarda "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, investitsiya xatarlarini kamaytirish va texnik-ekspertlik ko'magini taqdim etishda muhim o'rin tutmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan "yashil" investitsiya loyihalari ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini oshirish, energiya samaradorligini ta'minlash, uglerod chiqindilarini kamaytirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Jumladan, Yashil iqlim jamg'armasi tomonidan 2023-yil holatiga ko'ra moliyalashtirilgan 228 ta loyiha doirasida 1,6 milliard tonnadan ortiq CO₂ chiqindilarining oldi olinishi rejalashtirilgani mazkur moliyaviy mexanizmlarning global iqlim siyosatidagi amaliy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Bu esa "yashil" investitsiyalar ekologik samaradorlik bilan bir qatorda, iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga ham ega ekanini ko'rsatadi.⁹

"Yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari o'z mohiyatiga ko'ra bir nechta asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Ular qatoriga imtiyozli kreditlar, grantlar, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyiha modellar, kafolat instrumentlari, "yashil" obligatsiyalar, iqlim fondlari, subsidiyalar va aralash moliyalashtirish vositalari kiradi. Ushbu moliyaviy instrumentlar ekologik yo'naltirilgan loyihalarning investitsion jozibadorligini oshirish, xususiy sektor kapitalini jalb etish, moliyaviy xatarlarni kamaytirish hamda loyihalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida xalqaro moliyaviy institutlarning ishtiroki "yashil" investitsiyalarning institutsional kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida ham "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning ustuvor omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan loyihalarni kengaytirish uchun xalqaro moliyaviy institutlar, tijorat banklari, xususiy investorlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, "yashil" investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, ekologik baholash mezonlarini takomillashtirish, loyiha monitoringi tizimini kuchaytirish va xalqaro standartlarga mos "yashil" moliya infratuzilmasini rivojlantirish zarur.

⁹ Manba: <https://www.greenclimate.fund/annual-report-2023> - rasmiy sayt ma'lumotlari.



O'zbekiston kontekstida olib borilgan tahlillar quyidagilarni ko'rsatmoqda:

- 2020-yildan buyon mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha huquqiy va institutsional asoslar mustahkamlandi: "Yashil energiya to'g'risida"gi qonunlar, Milliy barqaror rivojlanish strategiyasi va "2030-yilgacha bo'lgan energetika strategiyasi" qabul qilindi;

- O'zbekiston 2021-yilda Yashil iqlim jamg'armasi bilan rasmiy hamkorlikni boshladi va 2023-yilgacha umumiy qiymati 1 milliard AQSh dollariga yaqin bo'lgan yashil energiya loyihalariga sarmoya jalb qildi;

- 2023-yil yakuniga ko'ra, mamlakatda xalqaro institutlar ishtirokidagi quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi natijasida 2,6 mln MWh ekologik toza energiya ishlab chiqarildi.

2024-yilda esa bu jarayon yanada faollashdi. Yangi quvvatlar ishga tushirildi, xususan:

- Jizzax viloyatida 500 MW quvvatga ega shamol elektr stansiyasi (Jizzakh Wind Project) ishga tushirildi;

- Buxoro viloyatida 250 MW quyosh elektr stansiyasi (Bukhara Solar PV Project) foydalanishga topshirildi;

- Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy institutlar – YTTB, OTB, IFC va GCF – tomonidan moliyalashtirilgan yangi loyiha bitimlari qiymati 500 million AQSh dollaridan oshdi.

2024-yil yakuniga kelib, O'zbekiston bo'yicha ekologik toza energiya ishlab chiqarish hajmi qariyb 4 million MWh ga yetdi, bu 2023-yilga nisbatan 50% o'sishni anglatadi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya umumiy elektr ishlab chiqarish hajmining 15% dan ortig'ini tashkil qila boshladi (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokidagi asosiy yashil energiya loyihalari (O'zbekiston, 2020–2025)¹⁰

Loyiha nomi	Moliyaviy institut	Quvvati (MW)	Investitsiya hajmi (mln \$)	Amalga oshirilgan yili
Nur Navoi Solar	YTTB	100	110	2021
Zarafshon Wind Power	IFC (Jahon banki guruhi)	500	400	2022
Sherobod Solar	Osiyo taraqqiyot banki (OTB)	457	274	2023
Nukus Solar	Yashil iqlim jamg'armasi (GCF)	220	238	2023
Jizzakh Wind Project	ACWA Power / YTTB	500	500	2024
Buxoro Solar Project	Masdar / OTB	250	215	2024

2020–2025-yillar davomida O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy investorlar ishtirokida yashil energetika loyihalarini moliyalashtirish jarayoni sezilarli darajada faollashgan. Jadvalda keltirilgan loyihalar asosan quyosh va shamol energetikasi yo'nalishlariga qaratilgan bo'lib, ular mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish, elektr energiyasi ishlab chiqarishda ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish hamda uglerod chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur loyihalarning umumiy quvvati 2 027 MWni, investitsiya hajmi esa 1 737 mln AQSH dollarini tashkil etadi. Bu holat O'zbekistonda "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda YTTB, OTB, IFC, GCF kabi xalqaro moliyaviy institutlar hamda ACWA Power va Masdar kabi yirik xorijiy investorlarning o'rni ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, shamol energetikasi loyihalarining yuqori quvvatga ega ekani mamlakatda energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va barqaror energetika infratuzilmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. (1-jadvalga qarang)

2014–2023-yillar davomida O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari bosqichma-bosqich o'sib borgan. Jumladan, jami qayta tiklanuvchi energiya quvvati 2014-yilda 1 872 MWni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 2 668 MWga yetgan. Demak, tahlil qilinayotgan davrda umumiy quvvat 796 MWga yoki qariyb 42,5 foizga oshgan. Bu holat mamlakatda energetika tizimini diversifikatsiya qilish, ekologik toza energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan investitsion chora-tadbirlarning muhim natijasi sifatida baholanishi mumkin. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qayta tiklanuvchi energiya tarkibida gidroenergetika asosiy o'rinni egallaydi. 2014-yilda gidroenergetika quvvati 1 871 MW bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 2 415 MWga yetgan. Bu esa gidroenergetika quvvatining 544 MWga oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2021-yildan boshlab quyosh energetikasi quvvatlarida sezilarli o'sish kuzatilgan. Xususan, quyosh energetikasi quvvati 2020-yilda 4 MW bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 104 MWga, 2022-yilda esa 253 MWga yetgan. Bu o'sish mamlakatda quyosh elektr stansiyalarini barpo etish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amaliy bosqichga o'tayotganini anglatadi. Umuman olganda, 2014–2023-yillardagi dinamik ko'rsatkichlar O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish jarayoni dastlab gidroenergetika hisobiga shakllanganini, keyingi yillarda esa quyosh energetikasi hisobiga diversifikatsiyalana boshlaganini ko'rsatadi (2-jadval).

¹⁰ Manba: O'zbekiston Energetika vazirligi, ADB, YTTB, GCF hisobotlari (2025)

2- jadval. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari dinamikasi, 2014–2023-yillar¹¹

Yil	Jami qayta tiklanuvchi energiya quvvati, MW	Gidroenergetika quvvati, MW	Quyosh energetikasi quvvati, MW
2014	1 872	1 871	1
2015	1 882	1 880	1
2016	1 883	1 880	1
2017	1 861	1 858	2
2018	1 919	1 915	3
2019	1 912	1 908	4
2020	2 009	2 005	4
2021	2 156	2 052	104
2022	2 305	2 052	253
2023	2 668	2 415	253

Umuman olganda, jadvalda aks etgan ko'rsatkichlar O'zbekistonda yashil energiya sohasiga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikning natijadorligini, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ijobiy dinamikani aniq ko'rsatib bermoqda. Bu esa ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning davom ettirilishi, moliyaviy-texnik ko'mak mexanizmlarining kengaytirilishi va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi zarurligini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bugungi kunda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim strategik vosita hisoblanadi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish hamda ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalar mamlakatda "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonining asosiy yo'nalishlarini tashkil etmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2014–2023-yillar davomida O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Mazkur davrda jami qayta tiklanuvchi energiya quvvati 1 872 MWdan 2 668 MWgacha oshgani mamlakatda ekologik toza energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha muayyan ijobiy natijalarga erishilganini ko'rsatadi. Bunda dastlabki yillarda qayta tiklanuvchi energiya tarkibida gidroenergetika ustunlik qilgan bo'lsa, 2021-yildan boshlab quyosh energetikasi quvvatlarining keskin o'sishi kuzatilgan. Bu holat O'zbekistonda energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish jarayoni faollashayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, "yashil" investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliyaviy institutlar, tijorat banklari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, xususiy investorlar, grantlar, imtiyozli kreditlar va "yashil" obligatsiyalar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi hamda Yashil iqlim jamg'armasi kabi institutlarning ishtiroki O'zbekistonda ekologik loyihalarni moliyalashtirish, investitsiya xatarlarini kamaytirish va xalqaro tajribani joriy etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ushbu institutlar nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki texnik maslahat, xalqaro standartlar, loyiha monitoringi va ekologik baholash tizimlarini takomillashtirishda ham muhim hamkor sifatida namoyon bo'lmoqda.

Maqolada olib borilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda "yashil" investitsiyalarni moliyalashtirish tizimi bosqichma-bosqich shakllanayotgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Jumladan, "yashil" loyihalarni baholash mezonlarining yetarli darajada standartlashtirilmagani, milliy yashil taksonomiyaning to'liq shakllanmagani, tijorat banklarida ekologik loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha maxsus moliyaviy mahsulotlarning cheklangani, xususiy sektor ishtirokining yetarli emasligi va loyiha monitoringi tizimining to'liq raqamlashtirilmagani ushbu sohada samaradorlikni pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- O'zbekistonda "yashil" investitsiya loyihalarini aniqlash, tasniflash va baholash imkonini beruvchi milliy yashil taksonomiyaning ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Mazkur taksonomiya qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, ekologik transport, chiqindilarni qayta ishlash, suv tejovchi texnologiyalar va

¹¹ Manba: O'zbekiston Energetika vazirligi, hisobotlari



uglerod chiqindilarini kamaytirish kabi yo'nalishlarni aniq mezonlar asosida belgilashi lozim. Bu esa investorlar, banklar va davlat organlari uchun loyihalarning ekologik ahamiyatini baholashda yagona metodologik asos yaratadi.

- tijorat banklari faoliyatida "yashil" moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejovchi texnologiyalar, ekologik toza ishlab chiqarish va resurs tejamkor loyihalar uchun imtiyozli kredit liniyalari, uzoq muddatli moliyalashtirish mahsulotlari va foiz stavkalarini qisman kompensatsiya qilish mexanizmlarini joriy etish lozim. Bu xususiy sektorning ekologik loyihalarga bo'lgan investitsion qiziqishini oshiradi.

- "yashil" obligatsiyalar bozorini rivojlantirish zarur. Davlat, mahalliy hokimiyatlar, yirik korxonalar va tijorat banklari tomonidan "yashil" obligatsiyalar chiqarish orqali uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Buning uchun xalqaro standartlarga mos emissiya tartibi, ekologik hisobot berish mexanizmi va mustaqil verifikatsiya tizimini yo'lga qo'yish muhimdir.

- davlat-xususiy sheriklik asosidagi "yashil" loyihalarni kengaytirish lozim. Ayniqsa, quyosh va shamol elektr stansiyalari, ekologik transport infratuzilmasi, chiqindilarni qayta ishlash zavodlari, oqova suvlarni tozalash tizimlari va energiya samarador binolarni qurishda DXSH mexanizmlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Bu davlat budjeti yukini kamaytirish bilan birga, xususiy kapital va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

- "yashil" investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda ESG mezonlari, ekologik audit va raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish zarur. Har bir yirik loyiha bo'yicha nafaqat moliyaviy rentabellik, balki CO₂ chiqindilarining kamayishi, energiya tejamkorligi, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlari ham muntazam baholab borilishi lozim.

- xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish zarur. Bunda imtiyozli kreditlar, grantlar, texnik yordam, kafolat instrumentlari va aralash moliyalashtirish mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, investitsiya xatarlarini kamaytiruvchi moliyaviy kafolatlar va sug'urta mexanizmlarini kengaytirish xususiy investorlar faolligini oshirishga xizmat qiladi.

- hududlar kesimida "yashil" investitsiya loyihalarining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash lozim. Masalan, quyosh nurlanishi yuqori hududlarda quyosh energetikasi, shamol salohiyati mavjud hududlarda shamol energetikasi, suv tanqisligi yuqori bo'lgan hududlarda suv tejovchi texnologiyalar, yirik shaharlarda esa ekologik transport va chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini ustuvor rivojlantirish maqsadga muvofiq.

- aholining va tadbirkorlik subyektlarining "yashil" moliyalashtirish borasidagi xabardorligini oshirish zarur. Buning uchun tijorat banklari, mahalliy hokimiyatlar, oliy ta'lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar hamkorligida seminarlar, maslahat markazlari, elektron platformalar va amaliy qo'llanmalarni ishlab chiqish lozim. Bu yashil moliyaviy mahsulotlardan foydalanish darajasini oshiradi.

Umuman olganda, "yashil" investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi, energiya xavfsizligi va ekologik muvozanatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xalqaro standartlarni joriy etish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va institutsional boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali mamlakatda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayoni yanada jadallashadi. Shu bois "yashil" investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash nafaqat ekologik siyosatning, balki milliy iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining ham ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. (2024). Renewable Energy Development Report 2023–2024. Tashkent.
2. Green Climate Fund (GCF). (2023). Annual Results Report. Retrieved from: <https://www.greenclimate.fund>
3. International Finance Corporation (IFC). (2022). Uzbekistan Renewable Energy Projects Overview. World Bank Group. Retrieved from: <https://www.ifc.org>
4. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). (2021–2023). Investments in Renewable Energy in Central Asia. Retrieved from: <https://www.ebrd.com>
5. Asian Development Bank (ADB). (2023). Solar and Wind Energy Projects in Uzbekistan. Retrieved from: <https://www.adb.org>
6. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). "Uzbekistan's Transition to Green Energy: Priorities and Challenges". Retrieved from: <https://www.uz.undp.org>
7. ACWA Power. (2024). Jizzakh and Bukhara Wind and Solar Projects – Overview. Retrieved from: <https://www.acwapower.com>
8. Masdar Clean Energy. (2024). Partnership with Uzbekistan – Renewable Projects Update. Retrieved from: <https://masdar.ae>
9. World Bank. (2022). Financing the Transition to Clean Energy in Developing Countries. Retrieved from: <https://www.worldbank.org>



10. Global Environment Facility (GEF). (2021). Supporting Sustainable Energy Investment in Emerging Economies. Retrieved from: <https://www.thegef.org>
11. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2023). Renewable Energy Market Analysis: Central Asia. Retrieved from: <https://www.irena.org>
12. Qodirov A. & Tursunova N. (2023). "Yashil energiya rivojida xalqaro moliyaviy institutlarning roli: O'zbekiston tajribasi". Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 3(2), 64–72.
13. Ergashev M.T. (2022). "O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishda investitsion muhit va xalqaro hamkorlik". Energetika va iqtisodiyot jurnali, №4, 58–66.
14. Norova N.N. (2024). "Yashil iqtisodiyot va xalqaro moliyaviy institutlar: O'zbekiston misolida tahlil". TDIU Ilmiy axborotnomasi, 2(4), 73–80. Retrieved from: <https://tdiu.uz/journal/nnorova-green>
15. FAO & UNDP. (2022). Climate Investment and Sustainability in Uzbekistan's Agriculture and Energy. Retrieved from: <https://www.fao.org>
16. Statistika agentligi huzuridagi Energetika bo'yicha axborot markazi. (2024). Qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish ko'rsatkichlari. – T.: Energiya axborot markazi nashriyoti.
17. Murodov Z.B. (2021). "Yashil moliya: moliyaviy barqarorlik va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanat". Moliyaviy tahlil va innovatsiyalar, №2, 21–28.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
